

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti Tarix fanlari doktori (PhD),  
Alimova Moxichexra Muzafarovna taqrizi ostida**

**Temirov Sheroz To‘raevich**  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi  
Email: [sheroztemirov@gmail.com](mailto:sheroztemirov@gmail.com)  
ORSID ID: 0009-0003-5594-7269

---

**MIR MUHAMMAD SIDDIQ HASHMAT DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA TASIR  
KO‘RSATGAN MA‘NAVIY MUHIT**

**Annotatsiya:** Maqola Buxoro amirligida kutubxonalar davlatniki (kutubxonai dorul-amora), Arkdagi kutubxona, madrasalar qoshidagi kutubxonalar hamda xususiy kutubxonalar bo‘lgan. Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o‘rniga bag‘ishlangan. Bundan tashqari taqiqotlar natijasida amirlikning Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, alohida shaxslar va amaldorlarning uylarida ham kutubxonalar mavjudligi aniqlangan. Tabiiyki, bu kutubxonalar qadimdan ilm va adab ahli uchun bilim maskani ham bo‘lganligi tahlil etilgan.

**Asosiy so‘zlari:** Mang‘itlar, amir Muzaffar, she‘riyat, tarix, antologiya, qo‘lyozma kitob, kutubxona.

**Аннотация:** Статья В Бухарском эмирате существовали государственные библиотеки (кутубханаи дарул-амора), библиотека в Арке, библиотеки при медресе и частные библиотеки. Посвящается месту частной библиотеки Мир Мухаммада Сиддика Хашмата в научной и литературной среде Бухары. Кроме того, в результате запретов было установлено наличие библиотек в домах частных лиц и чиновников в Карши, Шахрисабзе, Самарканде. Естественно, было проанализировано, что эти библиотеки с древних времен были местом знаний для людей науки и литературы.

**Ключевые слова:** Мангыти, эмир Музаффар, поэзия, история, антология, рукописная книга, библиотека.

**Abstract:** Article In the Emirate of Bukhara, there were state libraries (kutubkhanai darul-amora), library in Ark, libraries under madrasas and private libraries. Dedicated to the place of Mir Muhammad Siddiq Hashmat's private library in the scientific and literary environment of Bukhara. In addition, as a result of the bans, it was found that there are libraries in the homes of individuals and officials in Karshi, Shahrisabz, Samarkand. Naturally, it has been analyzed that these libraries have been a place of knowledge for people of science and literature since ancient times.

**Key words:** Mangyiti, emir Muzaffar, poetry, history, anthology, manuscript book, library.

**KIRISH:** Buxoro amirligida mang‘it sulolasi (1747-1920y.y.) o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutadi. XVIII asrning boshlarida Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan bir qatorda Buxoro amirligi Markaziy Osiyo mintaqasida muhim siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rol o‘ynadi.

Amir Sayid Mir Olimxon (To‘rajon) 1910-1920 yillar davomida Buxoro amirligida hukmronlik qilgan. Aksariyat manbalarda ko‘rsatilishicha Amir Abdulahadning ikkinchi o‘g‘li Mir Olim 1880 yili, ayrim manbalarda qayd etilishiga esa 1879 yil 3 yanvarda tug‘ilgan deyiladi. Amir Olimxon taxtga kelganida otasi Abdulahad singari unga taxtga da‘vo etadigan shahzodalar yo‘q edi.

Amir Muzaffarning Abdumalik To‘ra, Sayid Nuriddinxon, Sayid Mir Abd ul-Mo‘min Sayid Abdul Fattoh Mirzo, Abdul Samadlardan keyingi o‘g‘li Mir Muhammad Siddiq Hashmatdir. Mir Muhammad Siddiq Hashmat mang‘it sulolasidan bo‘lib, uning otasi amir Muzaffar, Nasrulloh o‘g‘li edi. Mir Muhammad Siddiq Hashmatni uylangani, farzandlari bor yo‘qligi haqida ma‘lumotlar manbalarda berilmagan. Bu haqda biror joyda ma‘lumot

topolmadik. Faqat esdaliklarida keltirilgan ma'lumotdan bilindiki, onasi bilan yashagan va onasi tikkan narsalarni Mir Muhammad Siddiq Hashmat bozorda sotib o'sha bilan ona va o'g'il kun kechirganlar.

**MATERIALLAR VA USLUBLAR:** Mir Muhammad Siddiq Hashmat bolaligidan ilmu ma'rifat va bilimga bo'lgan ishtiyoqini esdaliklarida ochiq yozgan: "Va haqir juda ham muhabbatinon edi va o'z ishlarida sa'y-harakati bor edi. Ustodlarga itoat qilardi va ikki uch yil ichida "Mulk al-yaqin" Hofizu Bedil, Jomiy va Navoiy devonlarini, Nizomiyni o'qidi. Mustaqil xat yozishni o'rgandi".

Mir Muhammad Siddiq Hashmat diniy bilimlarga ham berilib ketib Ali Qoriy va Mullo Ahmad Yusuf asarlaridan "Sharhi Mishkot" besh jild, "Sharhi Shifo" ikki jild, "Sharhi Shamoil", "Sharhi qasida" kabi ularning asarlari nusxalarini qidirib topgan.

Mir Muhammad Siddiq Hashmat tazkiralarning birida 11 yoshligida Abdulqodirxoja "Savdo" (Bepul degan taxallusi ham bo'lgan – dissertant) suhbatidan bahramand bo'lgan. "Rikobi hazrati intisob zilli ilohiy, hazrati arshoshyon (amir) bilan Kesh va Nasafga birga borib, munshiylar bilan boshqa mahfilga borardi. Ul janob (Abdulqodirxoja-dissertant) oliy suhbatdan chiqib, boshqa mahfilga borardilar"

Mir Muhammad Siddiq Hashmat o'zining "Tarjimai holi Mir Siddiq Hashmat" nomidagi esdaliklarida u 1281 yil, javzo oyining boshida, dushanba kuning kechasi Buxoroda olamga kelganman, deya yozgan. 1871 yildan Qarshi beki bo'lgan. Nuriddinbek vafotidan so'ng Amir Muzaffar uni 1878 yil Chorjo'y beki etib tayinladi. 1885 yildan Buxoroda amir Abdulahad hukmronligi boshlangach, Mir Muhammad Siddiq Hashmat taqdiri ham xuddi boshqa akalari singari kechdi. U lavozimidan tushirilib, Chorjo'ydan chaqirib olindi, 1885 yilda esa zindonband qilindi, ko'p o'tmay so'ngra qo'yib yuborildi, Buxoro Arkiga joylashtirildi va uy qamog'ida saqlandi. Buxoroda oxirgi yillari u Ravg'angaron dahasida yashadi. 1922 yili u Afg'onistonga ko'chib ketgan va uning ham 1932 yilda sodir bo'lgan vafotiga qadar taqdiri noma'lum. U siyosiy sohadan ketgach, o'zini adabiyotga bag'ishlagan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR:** Tarixchi olim professor Q.K. Rajabov "Yurt diydoriga talpinib ..." maqolasida amirning Qobul (Afg'oniston)ga yuborilgan qarindoshlari orasida uning amaki va amakivachchalari, xola va xolavachchalari, tog'o va tog'ovachchalari, amma va ammavachchalari, onalari, turli onalardan tug'ilgan uka va singillari borligini sanab o'tgan. Biroq Mir Muhammad Siddiq Hashmatning nomi bu ro'yxatda qayd etilmagan. Bizningcha, Mir Muhammad Siddiq Hashmat 52-51 nafar amir huzuriga yuborilgan kishilar safida bo'lsa kerak. Chunki u BXSrdagi ilmiy jamoatchilik bilan ba ... bo'lib, faoliyat yuritib kelayotgan, uy qamog'idan ozod bo'lgach, qochib ketishni ev qiladigan darajada bo'lmagandir. Amirga otasi Abdulahadning ukasi sifatida amaki darajasida qarindoshlik rishtalari bilan bog'liq Mir Muhammad Siddiq Hashmat muhojirlikni o'zi ixtiyor qilmagandir. Bu masalaning bir jihati, yana bir jihati mavjudki, Afg'oniston hukumati amirga nafaqa belgilash barobarida uning qarindoshlari uchun ham ma'lum miqdorda nafaqa belgilagan. Jumladan, afg'on hukumati tomonidan amirning amaki va tog'alariga 240 rupiydan, o'g'illari va turmushga chiqqan qizlariga 290 va 240 rupiydan, uzoq qarindoshlariga 140 rupiy oylik nafaqa berib turilgan. Ehtimol amirning amakisi Mir Muhammad Siddiq Hashmat ham 290 rupiy nafaqa olganlar qatorida bo'lgandir. Qolaversa, Mir Muhammad Siddiq Hashmat xorijda yashash uchun moddiy mablag'ga ega bo'lish maqsadida shaxsiy kutubxonasini Sharifjon maxdum Sadri Ziyoga sotgani ham bir qadar haqiqatga yaqindir.

Mir Muhammad Siddiq Hashmatning muhojirlik hayot yillari Afg'oniston va Saudiya Arabiston davlatlari bilan bog'liq. Saudiya Arabistonda o'sha paytda amir avlodlari istiqomat qilib hatto, Makka shahri yaqinida amirning haj ziyoratchilari uchun toshdan qurilgan uch qavatli tekkasi (musofirxonasi) bo'lgan bundan tashqari diniy va dunyoviy ilm egalari bo'lgan o'nlab "Buxoriy" ulamolar Saudiya Arabistoni shaharlari hisoblangan Jidda, Makka, Madina, Robi, Ahbo shaharlarida istiqomat qilishgan.

Uning bir necha tugallanmagan tazkiralari bizlargacha yetib kelgan. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida uning 60 dan oshiq qo'lyozma asarlari saqlanmoqda. Mir Muhammad Siddiq Hashmatning Buxoroda ikkinchi o'rinni egallagan katta kutubxonasi mavjudligi bizga ma'lum.

Qayd etish lozimki, Mir Muhammad Siddiq Hashmat BXSР yillarida “Anjumani tarix” (Buxoro ilmiy jamiyati) Buxoro xalq respublikasi hukumati oʻrnatilgan ikkinchi yilda yaʼni 1921 yilda tashkil etilgan. Uni tashkil etishdan maqsad nodir qoʻlyozmalarni toʻplash, arxeologik ashyolar va xalq ogʻzaki ijodi namunalarni toʻplab tadqiq etish, tarixiy obidalarni muhofaza qilish, xalq amaliy saʼnatini rivojlantirish, osori-atiqalarni Buxorodan chetga chiqishi oldini olish kabi qutlugʻ ishlarni bajarish edi. “Anjumani tarix” uyushmasiga Buxoro ziyolilari va hukumat aʼzolari, olim yozuvchi, maʼrifatparvar, taraqqiyparvarlar aʼzo boʻlib kirishgan. Jumladan, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Burxonov (Munzim) Sadridin Ayniy, Salimbek Salimiy, Sharifjon maxdum Sadri Ziyo, Ahmadjon Hamdiy, Musojon Saidjonov, Qori Yoʻldosh Poʻlatov shular qatorida Mir Muhammad Siddiq Hashmat uyushmaning faol aʼzolari edilar. Uning tomonidan maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilgan. Jamiyatni moddiy jihatdan BXSР hukumati rahbari Fayzulla Xoʻjaev va Markaziy Ijroiya Qoʻmita raisi Muinjon Aminovlar qoʻllab quvvatlagan. Ular tomonidan fors-tojik, turkiy tillardagi nodir qoʻlyozma kitoblar shaxsiy kutubxonalaridan sotib olingan. Sharifjon maxdum Sadri Ziyo kutubxonasidan 300 jildga yaqin kitoblar roʻyxatga olingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mangʻit sulolasi vakili boʻlgan Mir Muhammad Siddiq ibn amir Muzaffar Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkent istilo qilinishidan bir yil oldin, yaʼni 1864 yil, javzo oyi boshida olamga kelgan va uning keyingi hayoti va taqdiri Rossiya va BXSР bosqini, amirlik ustidan Rossiya protektoratini joriy etilishi davriga toʻgʻri keladi. Uni akasi va jiyani tomonidan arkdagi faxriy mahbusga aylantirilishi undagi isteʼdod va bilim egasi ekanidan darak beradi. Agar Mir Muhammad Siddiq Hashmat oldinroq olamga kelganida uning boshiga ham taxtga daʼvogar boʻlishi mumkin boʻlgan mangʻit sulolasi vakillarining fojiali taqdirleri qismati tushishi mumkin edi. Yozilmagan qoida va tartibga koʻra taxtga chiqqan valiahdlar yoki turli yoʻllar bilan toju taxtga ega boʻlganlar oʻzlarining aka-ukalari va yaqinlarini yoʻq qilishga uringanlar. Buxoro davlatida bunday misollar turli sulolalar taqdirida oʻz aksini topgan. Mir Muhammad Siddiq Hashmat hayot yoʻli va faoliyati ikki boshqichdan iborat boʻlib, u bir qism hayotini Vatani Buxoroda, keying hayot yoʻlini muhojirlikda Afgʻoniston va Saudiya Arabistonda yashadi. U muhojirlikda vafot etish qismatiga bitilgan amirzoda edi.

Maʼlum boʻldiki, Muhammadsiddiq Hashmatning kutubxonasi Buxoroda eng mukammal va boy boʻlgan (Sadri Ziyo va Sadridin Ayniy). Muallif Oʻzbekiston F.A.Sh.I dagi qayd daftarlari va katalogidagi tavsiflar orqali Hashmat kutubxonasining tarkibini aniqladi. Hashmat muhri bosilgan koʻpgina kitoblar Sadri Ziyo kitob koleksiyasi va kutubxonasidan chiqqani bois, shu xulosaga kelindiki, Hashmat hijratdan oldin ancha kitoblarini Sadri Ziyoga sotgan. Bundan tashqari, Hashmat kutubxonasiga mansub va uning muhri bosilgan kitoblar Oʻzbekiston FA ShI fondidan ham paydo boʻlgan.

Muhammadsiddiq Hashmat kutubxonasidagi kitoblar taqdiri va ularning izlab topish ishlari davom etmoqda.

Fikrimizcha, kitobning taqdiri ham inson taqdiriga oʻxshashligini qayd etishimiz mumkin. Kitoblar ham oʻz davrida jazoga tortilgan, senzura zulmiga duch kelgan, taʼqibga uchragan, hukmdorlar hukmi bilan hibsga olindi, yoʻq qilindi, yoqib yuborilgan, koʻmilgan.

Kitoblar turli xazina va maxsus fondlarda joylashtirilgan. Butunlay yoʻq qilingan kitoblar jamgʻarmasi ham mavjud. Lekin shuni ham taʼqidlamoq lozimki, bugun kunda ham aholining turli qatlam vakillari qoʻllarida yuzlab qoʻlyozma va toshbosma kitoblar mavjud. Hozir ham Oʻzbekistonning turli viloyat markazlari va alohida shaxslar xonadonlarida osori-atika va nodir qoʻlyozma kitoblarni uchratish mumkin.

Har bir majmuadagi arab yozuvidagi kitoblarni ajdodlarimizning maʼnaviy va madaniy merosi sifatida oʻrganishdan tarix sohasidagi tadqiqotlarning vazifasi deyish mumkindir.

**XULOSA:** Xulosa bilan bogʻliq fikrlarimizni davom ettirib, yana bir masalaga munosabat bildirib oʻtishni lozim topdik. Mir Muhammad Siddiq Hashmat yashagan yillar bila bogʻliq sanada bir qadar chalkashliklar bor. Ayrim zamonaviy tarixchilar u yashagan yillar bilan bogʻliq davrni 1857-1927 yillar tarixiy xronologik chegara deb koʻrsatadilar. Biroq biz uchun eng ishonchli manba Mir Muhammad Siddiq Hashmat oʻz qoʻli bilan bitib qoʻyilgan. Uning hijratdagi davrida kechgan hayoti va ijodi haqida ham turlicha qarashlar bor.

Mir Muhammad Siddiq Hashmat haqidagi ma'lumotlarni va Buxoro ilmiy-adabiy hayoti haqida Xo'ja Azimi "Shar'iy" (vafoti 1893 yil), Qoriy Rahmatulloh "Vozih" (1817-1894), Afzal Maxdum Pirmastiy (vafoti 1916 yil), Abdullohxo'ja "Abdiy", Ne'matulloh "Muhtaram ibn qozi Sharofuddin (1920 yili o'ldirildi) ning tazkiralari kabilardan olish mumkin.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hashmat. Zikri tarjimai holi Mirsiddiqxon Hashmat. – var. 119a va keyingilari.
2. Hashmat Mirsiddiq. Yoddoshtho // Qo'lyozma, O'zb FA ShI, № 2663. – 120. varaq
3. Hashmat Mirsiddiq. Tazkirat ush-shuaro. // O'zb FA ShI, № 2728. – B.74.
4. Muhammadsiddiq Hashmat. Tarjimai ahvoli Siddiqxon ibni amir Muzaffar // Qo'lyozma, O'zbekiston FA, Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasi, №2663/4. – var.117b, 118b, 119 a, b.
5. Rajabov Q. Yurt diydoriga talpinib ... // O'zbekiston ovozi; 1996 yil 25 oktyabr.
6. A. Muminov, F. Richard et M Szuppe Patrimoine manuscritulle de l'Asie centrale islamique, [Cahiers d'Asie Centrale 7], IFEAC, Tachkent - Aix-en-Provence, 1999. 141-173.
7. Nigared: Qoriy Rahmatulloh Vozeh. Tuhfatul-ahbob fi tazkiratilas'hob. – Toshkent, 1332/1913-1914;
8. Ne'matulloh Muhtaram. Tazkiratush-shuaro // Dastxati Instituti sharqshinosii AU Ҷumhurii O'zbekiston ba nomi Abu Rayhon Beruniy. № 2252/ II